



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
Nusharov Bobir Bolbekovich	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
Олимова Азиза Кахрамоновна	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Quدراتulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
Botirova Lobar Kamolovna	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish	73
Ergasheva Nigora Erkinovna	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
Baxramova O'ramol Uralovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
Ergasheva Mehriyona	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



INGLIZ TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Ergasheva Mehriyona

Turon universiteti, 770064019–xorijiy tillar,
filologiya va tillarni o'qitish(ingliz tili) yo'nalishi 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'rni hamda texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonida talabalarda lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalarni kommunikativ yondashuv doirasida rivojlantirish yo'llari yoritilgan, shuningdek, mustaqil ta'limni rivojlantirish asosida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning metodik ta'minoti tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada ingliz tilini o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan o'rinni foydalanish, o'qituvchining o'z ustida ishlashi, mas'uliyatni his etishi, darslarga yangiliklar kiritishi hamda darsning qiziqarli va jonli bo'lishini ta'minlashi masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tilda so'zlashish, innovatsion texnologiyalar, masofaviy o'qitish, raqamli vositalar, o'zlashtirish samaradorligi, sun'iy intellekt, grammatik qoidalar, TOEFL, IELTS, CEFR sertifikati, Duolingo ilovasi.

Abstract: The article examines the role of innovative technologies in teaching English and explores ways to develop students' linguistic, sociolinguistic, pragmatic, and strategic competences within the framework of the communicative approach through the use of technology. It also analyzes the methodological support for the application of innovative technologies based on the development of independent learning. Furthermore, the paper discusses the effective use of modern technologies in learning and teaching English, the teacher's continuous professional development, sense of responsibility, introduction of innovations into lessons, and the provision of engaging and dynamic classroom activities.

Key words: foreign language speaking, innovative technologies, distance learning, digital tools, learning efficiency, artificial intelligence, grammatical rules, TOEFL, IELTS, CEFR certificates, Duolingo application.

Аннотация: В статье освещается роль инновационных технологий в обучении английскому языку, а также раскрываются пути развития лингвистической, социолингвистической, прагматической и стратегической компетенций студентов в рамках коммуникативного подхода посредством использования технологий. Кроме того, проанализировано методическое обеспечение применения инновационных технологий на основе развития самостоятельного обучения. В статье также рассматриваются вопросы целесообразного использования современных технологий при изучении и преподавании английского языка, профессионального самосовершенствования преподавателя, осознания им ответственности, внедрения новшеств в учебный процесс и обеспечения интересной и динамичной организации занятий.

Ключевые слова: говорение на иностранном языке, инновационные технологии, дистанционное обучение, цифровые инструменты, эффективность усвоения, искусственный интеллект, грамматические правила, сертификаты TOEFL, IELTS, CEFR, приложение Duolingo.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli rivojlanish sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan va texnologiya tili sifatida muhim o'rin egallaydi. Ta'lim tizimida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab yil sayin ortib bormoqda. An'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Yangi davr hozirgi kun o'qituvchilariga yangi vazifalar va bir qator mas'uliyatlarni yuklaydi. Zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi bilan ingliz tilini o'qitish an'anasi sezilarli darajada o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan chet tillarni yanada takomillashtirib o'qitish yuzasidan 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son¹, ya'ni "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, chet tili o'qituvchilariga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish hamda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarda erkin so'zlasha oladigan qilib

1 <https://lex.uz/docs/-2126032>



tayyorlash mas'uliyati yuklatildi. Qaror bir necha banddan iborat bo'lib, aynan qarorning to'qqizinchi bandida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida batafsil bayon etilgan.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. Bir qator ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishning yangi metod va yo'llarini hayotga tatbiq etmoqdalar. Bu, albatta, chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Bundan tashqari, o'quvchi jonli harakatlarni ko'rib, ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushunishga harakat qiladi. Albatta, har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar – kompyuter, radio, CD, DVD vositalarini qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljitib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkonini beradi. Chet tilini qisqa muddatda ravon o'rganish uchun quyidagi usullarni qo'llash foydali deb ta'kidlanadi.

- **O'ziga ishonchni oshirish.** Chet tilini o'rganishni maqsad qildingizmi, aslo qo'rqmaslik lozim.
- **Aniq bir maqsad sari harakatlanish.** Agar bir tilni nima maqsadda o'rganayotganimizni aniqlab olsak, uni o'zlashtirish osonroq bo'ladi, ya'ni kimdir yaxshi o'qib universitetga kirmoqchi, kimdir esa TOEFL, IELTS yoki CEFR sertifikatini olmoqchi bo'ladi.
- **Albatta, aniq maqsad qo'yish va uning ortidan borish.** Lug'at va grammatik qoidalarni yod olish. Har bir tilni lug'at yodlamasdan o'rganib bo'lmagani kabi, grammatik qoidalarsiz ham mukammal darajaga yetib bo'lmaydi.
- **Turli til o'rgatuvchi dastur va saytlardan foydalanish.** Misol tariqasida "HelloTalk", "Duolingo" yoki "15 tilni o'qitish" ilovalarini aytish mumkin. Ulardan oqilona foydalanish o'z samarasini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi CEFR, ya'ni Xalqaro Yevropa ta'lim standartlarining talablari bo'yicha to'rtta (writing, reading, listening, speaking) kompetensiya asosida ingliz tilida yozish, o'qish, tinglab tushunish va so'zlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida texnologiyalardan unumli va o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tinglab tushunish darslarida audio matnlarni qo'yib eshittirishning ham o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bunda asosiy maqsad – o'rganuvchining eshitayotgan audio materialni to'liq tushunib olishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishini ta'minlashdir. Buning uchun, eng avvalo, muhitni audio materialni qo'yib eshittirishga tayyorlash, tinglovchilar uchun osoyishta sharoitni ta'minlash zarur. O'qituvchi esa qo'yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning soz ishlayotganiga e'tibor qaratishi, shuningdek, audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlar tayyor ekanligini hamda o'rganuvchilar tarqatma materiallar bilan ta'minlanganligini nazorat qilishi lozim. Nega xorijiy tilni o'rganish muhim?

Chet tilini o'rganishning eng aniq foydasi – turli mamlakatlardan kelgan insonlar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatidir. Agar siz tadbirkor bo'lsangiz, mijozlaringiz yoki hamkorlaringiz tilida muloqot qilishingiz mustahkam ishonch rishtalarini shakllantirishga va barqaror hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga yordam beradi. Shuningdek, ularning madaniyati, qadriyatlar va biznes amaliyotlarini tushunish imkonini beradi, bu esa bugungi globallashtirilgan iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Savol tug'iladi: chet tilini necha yoshdan boshlab o'rganish maqsadga muvofiq? Shu o'rinda aytish lozimki, bola tilni o'zlashtira boshlagan, ya'ni gapirishni o'rganayotgan davrdan boshlab xorijiy tilni ham samarali o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda fakultetimizning salohiyatli metodist-olimlari tomonidan "Bog'cha-maktab-oliygoh" klasterini shakllantirish maqsadida "My First English Book" nomli birinchi darslik tayyorlandi. U bog'cha yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, kichkintoylarning til o'rganish jarayonini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy etildi. Masalan, multimediyasi asosida chet tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarda to'rt ko'nikmani bir vaqtning o'zida rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati yaratildi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn ta'lim platformalari va mobil ilovalar talabalar motivatsiyasini oshiradi, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda til ko'nikmalarini tezroq shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar shaxsiylashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3-yilda 10 baravarga oshgan. Joriy yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o'tgan yillarga nisbatan 5 baravar ko'pdir. Chet tilini o'qitishning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijiy doktoranturada ta'lim olish uchun yiliga

20 ta o'rin ajratiladi. Britaniya Kengashi, Gyote instituti, Fransuz alyansi, KOIKA, JICA, Konfutsiy instituti kabi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, nodavlat o'quv markazlarini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha ishlarni samarali tashkillashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari – 2021-yil 1-iyulga qadar Agentlik bilan birgalikda joriy yilning ikkinchi yarmi uchun mo'ljallangan hududlarda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirish bo'yicha “yo'l xaritalari”ni ishlab chiqsin, keyinchalik esa har yili 15-yanvarga qadar bunday “yo'l xaritalari”ni ishlab chiqib, tasdiqlasin; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori – O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida: “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida ta'lim muassasalarining kamida C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o'qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo'shimcha ustama haqi to'lab borilsin. Bunda, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kamida C1 darajadagi xalqaro sertifikatni olish uchun imtihon topshirish bilan bog'liq xarajatlari Davlat budjetidan pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan, davlat oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xarajatlari esa oliy ta'lim muassasalarining o'z mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son² qarorining 1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik), shuningdek, Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilganligi; 2-bandiga muvofiq Agentlik va uning vakillari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazining 34 ta shtat birligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq 2025-2026-o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim. Shu munosabat bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mazkur talabdan kelib chiqqan holda barcha xorijiy til ustozlarining 2025-2026-o'quv yiliga qadar kamida B2 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishi lozimligini qat'iy eslatib o'tgan. Kimlar xorijiy til o'qituvchilari toifasiga kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida 15 ta xorijiy til ro'yxati keltirilgan. Bular ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu va hind tillari hisoblanadi. Demak, aynan mana shu tillardan dars beradigan pedagoglar xorijiy tillar o'qituvchilari hisoblanadi. Muhim! Ro'yxatda “Rus tili” fani o'qituvchilari xorijiy til o'qituvchisi sifatida qayd etilmagan. Demak, “Rus tili” fani o'qituvchilariga maktabda ishlashi uchun milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi mavjud emas. Yurtimizda chet tillarini o'rganishga qaratilgan chora-tadbirlar bejiz amalga oshirilayotgani yo'q. Chunki boshqa tillarni bilishga ehtiyoj bugun paydo bo'lib qolmagan, balki uzoq o'tmishimizda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ajdodlarimiz o'z ona tillari qatori boshqa tillarni ham mukammal bilishga intilganlar va bunga erishganlar. Ko'plab ajdodlarimiz boshqa tillarni chuqur egalash bilan bir qatorda o'sha xalqning ma'naviy merosiga o'zlarining durdona asarlari bilan ham hissa qo'shganlar. Biz ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishga harakat qilmoqdamiz. Yurtimizda shu xususda qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillari o'qituvchilari tayyorlandi. Umumta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi. Umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi. Chunki xorijiy tilni o'rganish asnosida o'sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti va dunyoqarashi bilan yaqindan tanishamiz. Bu holat til o'rganishni boshlagan ilk kunlardanoq sezilmasligi mumkin, ammo uni puxta va mukammal o'rgansak, buni anglaymiz.

² <https://lex.uz/docs/-5426736>



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'rganish bugungi globallashtirilgan dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy tilni o'rganish muloqotni yaxshilaydi, martaba imkoniyatlarini oshiradi, madaniy tushunishni rivojlantiradi va hatto kognitiv funksiyalarni yaxshilashi mumkin. Agar siz o'z martabangizni ko'tarmoqchi bo'lsangiz yoki shunchaki dunyoqarashingizni kengaytirmoqchi bo'lsangiz, yangi til o'rganishni boshlang. Bu o'zingiz uchun eng yaxshi sarmoyalardan biri bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yangi tilni o'rganish muvaffaqiyat hissini ta'minlaydi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu sizga yangi vazifalarni bajarishga hamda shaxsiy va professional maqsadlaringizga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. PQ-1875 "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. 2012-yil 10-dekabr. <https://lex.uz/docs/-2126032>
2. Boswood, T. (1997). *New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in TESOL Series II)*. California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
3. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Harlow, Essex: Pearson Longman.
4. Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). *Learning and Teaching Information Technology: Computer Skills in Context*. East Lansing, MI: ERIC document ED465377. Retrieved June 7, 2007- from <http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm>.
5. Warschauer, M., & Kern, K. (2000). *Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.